

BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

Tahrir Hay'ati

Baxtiyor SAIDOV
G'ayrat SHOUMAROV
Rustem REIMOV
Risboy JO'RAYEV
Shaxnoza XALILOVA
Boris BLYAXER
Iroda ABDULLAYEVA
Ayubxon RADJIYEV
Sharibboy ERGASHEV
Feruz QODIROVA

Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

Kompyuterda sahifalovchi va dizayn

Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarining uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi "MAKTAB VA HAYOT" M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "MAKTAB VA HAYOT" dan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan chiqqan boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,
Olmazor t., Ziyoyev ko'chasi, 6A uy.
Tel: (0371) 246-21-02

E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI - 1019

MUNDARIJA

T.K. KOMILOV.

Mamlakatimizda xalq ta'limini moliyalashtirishning asoslari: yutuqlar, muammolar va takliflar 2

SH.N. MUXAMEDOV.

Xalq ta'limi tizimida rahbar va xodimlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish zarurati 5

M.M. JABBOROV.

Tarbiyasi qiyin o'quvchilarning turlari va ularning kelib chiqish sabablari 9

F.R. ABDULLAYEV.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini baholashning samarali usullari 11

N.M. MULLABAYEVA.

Maktabda psixologik xavfsiz muhitni shakllantirish bo'yicha psixokorreksion dastur 13

T.Z. XALILOV.

Finlandiya ta'lim tizimini O'zbekistonda joriy etish: muammolar va takliflar 15

R.MUSURMANOV, M.MUSURMONOVA.

Uzluksiz ta'lim tizimida maktab o'qituvchisiga qo'yiladigan zamonaviy kompetensiyalar 18

D.T. GAPUROVA.

Alohida yordamga muhtoj bolalarning ta'lim olish imkoniyatlari 20

SH.E. TOXTIYAROVA.

Inklyuziv ta'lim sharoitida darsni rejalashtirish xususiyatlari 22

N.Z. ABIDOVA, Z.N. LATIBJONOVA.

Tilni egallashning dastlabki bosqichida nutqiy faoliyatda verbal va noverbal muloqotning tavsifnomasi 24

B.A. XOLMO'MINOVA.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirish jarayonida kognitiv faoliyatni rivojlantirish 26

N. BO'RIYEVA.

Bolalar ovozi ontogenezda rivojlanishi 28

A.B. MAMATOVA.

O'zbek xalq folklori- inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalar nutqini rivojlantirishning muhim omili 30

D.S. ABDULLAJANOVA.

Maktab boshqaruv kadrlarini samarali tanlashning ijtimoiy-psixologik omillari 31

M.X. KARAMYAN.

Мотивационные детерминанты здорового поведения в подростковом и юношеском возрасте 33

N.E. ERGASHEVA.

Oilada va maktabda kitobxonlik vositasi orqali o'quvchilarni ma'naviyatini shakllantirish 35

N.YA. QURBONOV.

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisida ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirish 37

O.Y. BOZOROV.

Logoped - defektologlarning metodik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari 39

L.A. SULTONOVA.

Ta'limda maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatini tashkil etish masalalari 41

S.S. SAYDALIYEV, F.S. RASULOVA.

Davlat standarti asosida chizmalarni taxt qilish 42

D.H. MAPACUJOVA.

Аутентичные видеоматериалы на уроках иностранного языка 45

F.QODIROVA, S.MO'MINOV.

Inklyuziv ta'limda pedagog xodimlar faoliyati va ota-onalar bilan hamkorlik 47



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MAKTAB O'QITUVCHISIGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY KOMPETENSIYALAR

R.Musurmanov, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Pedagogika va menejment" kafedrasida dotsenti, p.f.n.
M.Musurmonova, mazkur universitet "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi

В статье рассматривается система непрерывного образования, современные компетенции учителей общеобразовательных школ, даются рекомендации.

Ключевые слова и понятия: школьный учитель, образование и наука, учебно-методические пособия, контроль и анализ учебного процесса, рациональная организация урока, теоретического урока и практических занятий, компетентность учителя.

The article discusses the system of lifelong education, modern competences of teachers of secondary schools, and makes recommendations.

Key words and concepts: school teacher, education and science, teaching aids, control and analysis of the educational process, rational organization of the lesson, theoretical lesson and practical classes, teacher competence.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bir qator islohotlarda ijtimoiy soha, xususan, ta'lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish borasida ustuvor vazifalar belgilangan [1]. Bunda ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi ta'lim muassasalarini qurish, ta'mirlash va kapital ta'mirlash barobarida ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash nazarda tutilgan. Amalga oshirilayotgan ishlarning ko'lami yildan-yilga kengayib bormoqda. Ta'lim samaradorligiga erishish asosiy maqsad etib belgilanganligi, yaratilgan sharoitlardan oqilona foydalanish jarayonlarini nazorat qilish va tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonini nazorat va tahlil qilish pedagogik jamoa ishiga rahbarlik qilishning asosi va psixologik shakllaridan biridir. Nazorat va tahlil qilishning asosiy maqsadi kamchiliklarni topish, ishning holatini tasdiqlash emas, balki o'qituvchilar tomonidan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonining to'g'ri rejalashtirilayotganligi, darsni oqilona tashkil etish orqali fanlarni o'qitish metodikasi samaradorligini oshirish, faoliyatlaridagi xato va kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish hamda ularga zaruriy metodik taklif va tavsiyalar berishdan iboratdir.

Nazariy dars va amaliy mashg'ulotlarni tahlil etish deyilganda, asosan pedagog faoliyatini o'rganish, uning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga asoslanib, amaliy-didaktik yordam berish tushuniladi.

Pedagogik nazoratning mohiyati shundan iboratki, unda ta'lim muassasasi rahbarlari yoki monitoring va ichki nazorat bo'limi xodimlari oldindan rejalashtirilgan maqsad bo'yicha o'quv mashg'ulotlarining sifati va fanlar bo'yicha ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajalarini har tomonlama o'rganadilar [2].

Ana shu talablardan kelib chiqib, har bir mutaxassislik fani bo'yicha o'qituvchining kompetensiyasi (ixtisoslashgan xarakteristikasini nazarda tutgan profессиogrammasi) tuziladi va o'qituvchilarning shu talablarga rioya qilishi hamda malakalarga ega bo'lishini nazarda tutadi.

Jumladan, maktabning o'qituvchi-murabbiysi profессиogrammasini quyidagicha misol qilib keltiramiz. Profессиogrammada o'qituvchining muhim xislatlari sifatida borgan

sari takomillashib borishini hisobga olgan holda quyidagicha kompetensiyalarni keltirish mumkin.

1. O'qituvchining shaxs sifatidagi shaxsiy xislatlari:

- bolalarni yaxshi ko'rishi, ularni sevish;
- amaliy-psixologik aql-farosatlilik;
- mehnatsevarlik va shaxsiy namuna;
- jamoat ishlarida faollik;
- mehribonlik;
- kamtarlik;
- odamiylik, dilkashlik;
- uddaburonlik, mustahkam xarakterga ega bo'lish;
- muttasil o'z bilimini oshirishga intilish.

2. Kasbiy xos bilim, ko'nikma va malakasi:

- ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini zamon talablari darajasida tushunishi;
- umumiy psixologiya asoslari, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi;
- etnopsixologik bilimlarni egallashi;
- zamonaviy pedagogika asoslarini bilishi;
- zamonaviy pedagogikaning metodologik asoslarini egalaganligi;
- maktab yoshida bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishi;
- o'z fanini o'qitishni zamonaviy yangi pedagogik texnologiyalari asosida tashkil etishi metodikasini chuqur bilishi;
- o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning samarali usullarini bilishi;
- oila, ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmuni, mohiyatini chuqur bilishi.

3. O'z kasbiga xos munosib xislatlari:

- milliy qayta qurish mafkurasi bilan mustaqil davlat mafkurasini tushunishi;
- zamonaviy maktabda olib boriladigan o'quv-tarbiya jarayonida umuminsoniy nomoddiy boyliklar, milliy an'analar va urf-odatlarining ahamiyatini tushunishi;
- o'qituvchining kuzatuvchanligi;
- o'z diqqat-e'tiborini taqsimlay olishi;
- pedagogik fantaziya (xayol) ning rivojlanishi;
- o'ziga nisbatan refleksiv tanqidiy munosabatda bo'lishi;
- o'zini qo'lga olishi, o'zini tuta olishi, ehtirolarga berilmaslik;



- pedagogik takt;
- nutqning ravonligi, emotsional ifodalanishi.

4. Shaxsiy-pedagogik uddaburonligi:

- dars mashg'ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi;
- o'quvchilarning bilim egallash faoliyatlarini boshqara olishi;
- ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilar ongining taraqqiy etib borishini istiqbolli ravishda rejalashtira olishi;
- pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni bilishi;
- bolalar jamoasiga rahbarlik qilishda o'z faoliyatini rejalashtirishni bilishi;
- o'quv maqsadlarini aniq rejalashtira olishi;
- o'zining ta'lim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi.

5. Tashkilotchilik malakalari:

- bolalar jamoasini uyushtira va boshqara bilishi;
- turli konfliktli sharoitlarda bolalar jamoasiga o'z ta'sirini o'tkaza olib boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- bolalarni maqsadli ravishda biror narsaga qiziqtirib, ularni faollashtira olishi;
- amaliy masalalarni hal etishda o'zining bilim va tajribalarini ustalik bilan favqulodda va tez qo'llay olishi.

6. Kommunikativ malakalari:

- bolalarni o'ziga jalb eta olish qobiliyatiga egaligi;
- bolalar va ularning ota-onalari bilan maqsadga muvofiq ravishda pedagogik munosabatlarni tashkil etish, tiklashni bilishi;
- bolalarning jamoalararo va jamoa orasida o'zaro munosabatlarni tartibga solishni bilishi;
- bolalar va ota-onalar bilan zarur hollarda tashqaridan aloqa bog'lashni bilishi.

7. Gnostik malakalar:

- bolalarning asab-psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilishi;
- salbiy munosabatlarni, xulq-atvoridagi o'zgarishlarni kuzatish va korreksiyalash qobiliyatiga egaligi;
- o'zining tajribasi va pedagogik natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi;
- boshqa o'qituvchilarning tajribalarini o'rganib, undan (nazariy va amaliy tomondan) to'g'ri xulosa chiqara olish qobiliyatiga egaligi va o'z amaliyotida qo'llay bilishi;
- psixologik-pedagogik va boshqa zaruriy adabiyotlardan keng foydalanishni bilishi;
- o'quvchilar xatti-harakatini to'g'ri tushunib, ularning xulq-atvor sabablarini tushuntira olishi.

8. Ilmiy-ijodiy xislatlari:

- doimiy ravishda pedagogik mahoratini takomillashtirishga intilishi;
 - o'quvchilarni risoladagidek tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati;
 - o'zini o'quvchi o'miga qo'yib, bo'lib o'tgan hodisalarga ular nazari bilan qaray olishi;
 - avvalgi voqeyalar, hodisalar va tarbiyalanuvchi shaxsiga qaray olish qobiliyati;
 - o'zining pedagogik ta'siri natijalarini oldindan ko'ra bilishga intilishi.
- Shunday qilib, keltirilgan yuqoridagi modelning asosiy tuzilishi tariqasida quyidagilar keltiriladi;
- shaxsning jamoatchilik va kasbiy yo'nalishi;

- pedagogik mahorat va qobiliyati;
- xarakterning psixologik xususiyatlari;
- bilish faoliyati;
- o'qituvchi shaxsining bolalarni kasbga tayyorlash ishlari darajasidagi umumiy taraqqiyoti.

9. Pedagogik qobiliyatlar:

Qobiliyat - bu kishining biror faoliyatga yaroqlilik darajasi va shu faoliyatni amalga oshirishidir.

Pedagogik qobiliyat - bu qobiliyat turlaridan biri bo'lib, kishining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi. Pedagogik qobiliyatning tuzilishi qanday? Quyida bu masalani ko'rib chiqamiz.

Uzoq yillar olib borilgan tadqiqotlar pedagogik qobiliyatlar murakkab va ko'pqirrali psixologik bilimlardan iboratligini ko'rsatib berdi. Ana shu tadqiqot ma'lumotlaridan foydalanib, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida muhim o'rin egallaydigan qator komponentlarni (tarkibiy qismlar) ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Didaktik qobiliyatlar - bu bolalarga o'quv materiallarni aniq va ravshan tushuntirib, oson va tushunarli tarzda yetkazib berish, bolalarga fanga qiziqish uyg'otib, ularda mustaqil faol fikrlashni uyg'ota oladigan qobiliyatlardir.

Didaktik qobiliyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi zarurat tug'ilganda qiyin o'quv materialini osonroq, murakkabrog'ini soddaroq, tushunishi qiyin bo'lganini tushunarliroq qilib o'quvchilarga moslashtirib bera oladi. O'qituvchining mana shu xislatlarini bilib olgan o'quvchilar odatda: «o'qituvchining eng muhim tomoni ham uning hamma narsani aniq va tushunarli qilib berishida-da. Bunday o'qituvchining qo'lida mazza qilib o'qiging keladi»; «Unisi esa hech narsaga yaramaydigan o'qituvchi, hech ham aniq tushuntirib bera olmas edi»; «o'quv materialini oldida tirik odamlar emas, balki qandaydir mexanizmlar bordek, zerikarli va noaniq mujmal qilib tushuntiradi. Biz bunday o'qituvchilarni yoqtirmaymiz»-deydilar.

Ko'pchilik o'qituvchilarga, ayniqsa hafsalasiz o'qituvchilarga, o'quv materiali oddiygina va hech qanday alohida tushuntirish hamda izoh berishni talab qilmaydigandek tuyuladi.

Bunday o'qituvchilar o'quvchilarni emas, balki birinchi holda o'zlarini nazarda tutib ish olib boradilar. Shuning uchun ham o'quv materialini o'ziga qarab tanlaydilar.

2. Akademik qobiliyatlar - matematika, fizika, biologiya, ona tili, adabiyot, tarix va boshqa shu kabi fanlar sohasiga xos bo'lgan qobiliyatlardir.

Qobiliyatli o'qituvchi o'z fanini faqat hajmidagina emas, balki atrofficha, keng, chuqur bilib, bu sohada erishilgan yutuqlar va kashfiyotlarni doimiy ravishda kuzata borib, o'quv materialini mutlaqo erkin egallab, unga katta qiziqish bilan qaraydi hamda ozgina bo'lsada tadqiqot ishlarini olib boradi.

Ko'pchilik tajribali pedagoglarning aytishlaricha, o'qituvchi o'z fani bo'yicha bunday yuksak bilim saviyasiga erishish, boshqalarni qoyil qilib hayratda qoldirish, o'quvchilarda katta qiziqish uyg'ota olish uchun u yuksak madaniyatli, har tomonlama mazmunli, keng eruditsiyali (bilimdon) odam bo'lmog'i lozim [3].

3. Perseptiv qobiliyatlar - bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchi shaxsining vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog'liq nozik tomonlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyatdir.



4. Nutq qobiliyati - kishining o'z his tuyg'ularini nutq yordamida, shu bilan birga mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish qobiliyatidir. Bu o'qituvchidan o'quvchilarga uzatiladigan axborot, asosan, ikkinchi signal tizimi - nutq orqali beriladi. Bunda mazmun jihatidan uning ichki va tashqi xususiyatlari nazarda tutiladi.

Darsda qobiliyatli o'qituvchining nutqi hamma vaqt o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntiradimi, o'quvchilar javobini sharhlab beradimi, xullas, nima qilishidan qat'iy nazar, nutqi hamma vaqt o'zining ishonchlilik, jozibador va yoqimlilik kabi ichki quvvat bilan alohida ajralib turishi lozim.

Shoshqaloq va yoqimsiz nutq bilimlarni o'zlashtirishga xalaqit berib bolalarning g'ashiga tegadi va tez toliqtiradi. O'ta sekin nutq lanjlik va zerikishga olib keladi [5].

Nutqiy mahorat, imo-ishoralar va turli keskin harakatlar o'quvchilarni zeriktirmaydi, jonlantiradi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati - bu birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtira bilish, bunda jamoani jipslashtira olish va ikkinchidan, o'zining shaxsiy ishini to'g'ri tashkil qila olish qobiliyatidir. O'quvchilar o'z o'qituvchilari haqida turlicha fikrda bo'ladi.

O'qituvchining o'z ishini tashkil qila bilishi deganda, uning o'z ishini to'g'ri rejalashtirib, uni nazorat qila olishi nazarda tutiladi. Tajribali o'qituvchilarda vaqtga nisbatan o'ziga xos sezuvchanlik ishini vaqt bo'yicha to'g'ri taqsimlab, mo'ljallangan vaqtdan to'g'ri foydalana olish ko'nikmasi paydo bo'ladi.

6. Avtoritar qobiliyati - bu o'quvchilarga bevosita emosional-irodaviy ta'sir etib, ularda obro' orttira bilishdan iborat qobiliyatidir.

Avtoritar qobiliyat o'qituvchining rostgo'yli, irodaviy uddaburronligi, o'zini tuta bilishi, farosatligi, talabchanligi kabi irodaviy xislatlari hamda qator shaxsiy fazilatlariga, shu bilan birga o'quvchilarni ta'lim-tarbiyasida javobgarlikni

his etish, uning e'tiqodi, o'quvchilarga ma'naviy va ma'rifiy e'tiqodni singdira olganligiga ishonchi kabi xislatlarga ham bog'liqdir.

7. Kommunikativ qobiliyat - bu bolalar bilan muloqotda bo'lishga, o'quvchilarga nisbatan ijobiy yondashish uchun to'g'ri yo'l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai-nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga pedagogik taktning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatdir. O'qituvchi nutqining ravonligi, jarangdorligi, yoqimlilik o'quvchiga ijobiy ta'sir etib, o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi [2].

Xulosa shundan iboratki, jamiyat, ilm-fan, texnika taraqqiyoti bugungi kun o'qituvchisi oldiga yuksak talablarni qo'ymoqda. Bugungi kunda maktablarda o'z faoliyatini olib borayotgan zamonaviy o'qituvchilarida yuqorida keltirilgan sifat va salohiyatlar mavjud bo'lsa, uchinchi Renesans poydevorini qurishdek mas'uliyatli vazifani uddalash imkoni paydo bo'ladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son farmoni. 2022 yil 28 yanvar. <https://lex.uz/docs/5841063>

2. Po'latov Sh.P. Maktab menejmenti o'quv qo'llanmasi, T. 2022 y.

3. Musurmonov R. «Ta'lim sifatini boshqarishga ijobiy ta'sir etuvchi omillar haqida», Kirgiziya Vestnik Batkentsko-gos. Univer. J. 2008, № 5, B. 76-78

4. Musurmonov R., Musurmonova M. Ta'limda innovatsion faoliyat - davr talabi "Science and Education" Scientific Journal December 2020 / Volume 1 Special Issue 4

5. Musurmonov R. Musurmonova M. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsiyalar/ academic research in educational sciences volume 1 | issue 3 | 2020 issn: 2181-1385 scientific journal impact factor (sjif) 2020: 4.804.

ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNING TA'LIM OLIISH IMKONIYATLARI

D.T. Gapurova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

В данной статье представлены научно-исследовательские работы, нормативные документы, образовательные возможности детей с ограниченными возможностями здоровья, а также особенности, правовые основания, цели и задачи образовательных технологий, применяемых для данной категории детей в целях совершенствования и модернизации образовательной системы.

Ключевые слова и понятия: потребность в специальном образовании, инклюзивное образование, технология инклюзивного образования, учебная программа, инструмент, метод.

This article presents research papers, regulations, educational opportunities for children with disabilities, as well as features, legal grounds, goals and objectives of educational technologies used for this category of children in order to improve and modernize the educational system.

Key words and concepts: need for special education, inclusive education, technology of inclusive education, curriculum, tool, method.

Har qanday jamiyatda yosh avlodning har tomonlama yetuk, komil inson bo'lib voyaga yetishiga, munosib fuqarolar sifatida ulg'ayib, davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga ulush qo'shishlariga umid bog'lanadi. Butun jahon bolalariga tegishli bo'lgan bolalar huquqi haqidagi Konvensiyada, O'zbekiston Respublikasining

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» singari qator muhim me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilishicha, barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ham mehnat qilish, ta'lim olish, hayotda o'z o'rnini topish huquqlariga egadirlar.